


IX. KICHIK TADBIRKORLIK (BIZNES)


2024-yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning YAHM dagi ulushi **73,5 %** ni tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida **5 582** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.



Eng ko'p yangidan tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida 2 013 ta, sanoat tarmog'ida 881 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 671 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 601 ta, axborot va aloqada 292 ta, qurilish sohasida 242 tani tashkil etilgan.

Korxonalar soni kesimida



2024-yilning yanvar-sentabr oylarida yalpi hududiy mahsulotning 73,5 foizi (2023-yil yanvar-sentabrda 72,8 foiz) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi.



sanoat mahsulotini ishlab chiqarish hajmi 14 217,3 mlrd. soʻmni (sanoat ishlab chiqarish umumiy hajmining 48,1 foizi va faoliyat koʻrsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 5 321 tani tashkil etdi);



39 850,2 mlrd. soʻmlik qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaliklari mahsulotlari (qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaliklari umumiy hajmining 95,3 foizi) faoliyat koʻrsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 2 440 tani tashkil etdi;



11 416,8 mlrd. soʻmlik investitsiyalar oʻzlashtirilib (umumiy investitsiyalar hajmining 54,0 foizini tashkil etdi);



8 280,9 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 85,6 foizi) (qurilish sohasida faoliyat koʻrsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 2 238 tani tashkil etdi);



avtomobil transporti yuk aylanmasining hajmi 1 100,4 mln. tonna km. tashkil qilib 85,2 foizi, umumiy yoʻlovchi aylanmasi 11 517,9 mln. yoʻlovchi km. tashkil qilib 97,1 foizi kichik tadbirkorlik subyektlari hisobiga toʻgʻri kelmoqda (faoliyat koʻrsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 957 tani tashkil etmoqda)




chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 86,3 foizi yoki 20 086,7 mlrd. soʻm, xizmatlar umumiy hajmining 65,2 foizi yoki 25 938,8 mlrd. soʻmni tashkil qildi. Savdo ohasida faoliyat koʻrsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 11 393 ta.




228,6 mln. AQSh dollari miqdorida eksport va (eksport hajmining 38,2 foizi) 574,0 mln. AQSh dollari miqdorida import (import hajmining 36,1 foizi) operatsiyalari amalga oshirildi.

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti
(ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi ulushi




	<i>Kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmi, mlrd. soʻm</i>	<i>kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi ulushi, % hisobida</i>
Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi	39 850,2	95,3
Sanoat	14 217,3	48,1
Qurilish	8 280,9	85,6
Chakana savdo	20 086,7	86,3
Yuk tashish, mln tn.	41,2	88,0
Yoʻlovchi tashish, mln. kishi	333,0	93,7
Eksport, mln. AQSh doll.	228,6	38,2
Import, mln. AQSh doll.	574,0	36,1

Yalpi hududiy mahsulot va iqtisodiyot tarmoqlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmida kichik tadbirkorlik (biznes) ulushining o'zgarishi (umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)




2024-yilning 1-oktabr holatiga 56 318 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar (dehqon va fermer xo'jaliklaridan tashqari) davlat ro'yxatidan o'tkazilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan (54 781 ta) 102,8 foizni tashkil etdi.




Eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar ro'yxatdan o'tganlarning ulushida savdo (40,6 %), sanoat (16,7 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (9,7 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (8,7 %), qurilish (7,0 %), tashish va saqlash (2,6 %), axborot va aloqa (2,0 %) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (2,0 %) sohalariga to'g'ri kelmoqda.

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi
(dehqon va fermer xo'jaliklarisiz, jamiga nisbatan foiz hisobida)




2019-2024-yillar yanvar-sentabr oylariga kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati





2024-yilning yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsulotini ishlab chiqarish hajmi

Shahar va tumanlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Samarqand shahri (3 003,5 mlrd. so'm), Urgut (2 348,3 mlrd. so'm), Jomboy (1 297,6 mlrd. so'm), Samarqand (1 436,4 mlrd. so'm), Toyloq (1 068,2 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Paxtachi (120,2 mlrd. so'm) va Qo'shrabot tumanlarida (119,8 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.




■ hajm, mlrd. so'm

2019-2024-yillar yanvar-sentabr oylariga kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdodagi faoliyati



2024-yilning yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'atlari





Kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari tomonidan chakana tovar aylanmasi hajmida Samarqand shahri (5 917,9 mlrd. so'm), Urgut (2 170,6 mlrd. so'm) va Samarqand (1 775,3 mlrd. so'm) tumanlari yetakchilik qilmoqda.


2019-2024-yillar yanvar-sentabr oylariga kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatishdagi faoliyati

Hajmi, mlrd

Ulushi,



2024-yilning yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da xizmat ko'rsatish hajmi va o'sish sur'atlari



Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning yuqori ulushlari Qo'shrabot tumani (jami xizmatlar hajmiga nisbatan ulushi (83,9 %), Oqdaryo (84,7 %), Narpay (83,5 %), Kattaqo'rg'on (83,5 %) va Jomboy (80,8 %) tumanlariga to'g'ri kelgan bo'lsa eng past ko'rsatkich Samarqand shahriga (51,1 %) to'g'ri keladi.